



**15-16 APREL
2022**

**TOSHKENT
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

**“TADQIQOT.UZ”
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**II
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TO‘PLAMI

Toshkent - 2023

Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil, Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir kengashi:

g.f.d., professor Hikmatov F.H.
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

Kengash a'zolari:

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.
PhD, dotsent Prenov Sh.M.
PhD, dotsent Raxmonov D.N.
PhD, dotsent Raxmonov K.R.
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

Mas'ul muharrir:

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz

SHAHARLAR TARAQQIYOTIDA TURISTIK KORIDORLARNING AHAMIYATI

Qosimov Xasanboy Sirojiddinovich

tayanch doktoranti

Mirzo Ulug‘bek O‘zbekiston milliy universiteti

Annotasiya. Maqolada turistik koridorlarni tashkil etishning ahamiyati va respublikadagi turistik koridori tarkibidagi Farg‘ona mintaqasi turistik resurslari va ularning hududiy tarkibi aniqlangan. Turistik koridor bo‘ylab joylashgan shaharlarning rivojlanishida turizm omilining roliga baho berilgan.

Kalit so‘zlar: turistik koridor, turistik resurslar, infratuzilma, hududiy tarkib, turistik marshrut, urbanistik taraqqiyot, turistik omil.

THE IMPORTANCE OF TOURIST CORRIDORS IN URBAN DEVELOPMENT

Qosimov Xasanboy Sirojiddinovich

Annotation. The article identifies the importance of the organization of tourist corridors and the tourist resources of the Fergana region as part of the tourist corridor in the Republic and their territorial composition. The role of the tourism factor in the development of cities located along the tourist corridor was assessed.


Keywords: tourist corridor, tourist resources, infrastructure, regional content, tourist route, urban development, tourist factor.

Jahon mamlakatlarida turistik koridorlarning turizm rivojida ahamiyatini Xitoy, Turkiya, Ispaniya va boshqa mamlakatlarda tashkil qilingan turistik koridorlar misol ilib ko‘rsatish mumkin. O‘zbekistonda ham turistik koridorlarni shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 13-avgustdagi PF-5781-son Farmoni bilan turizmni rivojlantirishning 2020–2024-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasiga ko‘ra, Andijon viloyatining Xonobod shahridan Surxondaryo viloyatining Termiz shahriga bog‘langan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasining Mo‘ynoq shahrigacha “O‘zbekiston turizm magistrali” turizm transport koridorini tashkil etish belgilandi. [1].

Mazkur tashkil qilinishi belgilangan turistik koridorning Farg‘ona mintaqasi qismini Farg‘ona halqa yo‘li bo‘ylab o‘tkazish to‘g‘ri bo‘lardi. Ushbu halqa yo‘lidan 20 km gacha bo‘lgan masofadagi turistik maskanlarni qamrab oladi. [5]

Quyida taklif etilayotgan turistik koridor (marshrut) va unga qo‘shimcha sifatida kiritilayotgan marshrutlar yo‘nalishidagi ayrim shahar va shaharchalarning turistik imkoniyatlari va shahar hosil qiluvchi omillari bilan tanishib chiqamiz. (1-rasm)

1. Qo‘qon – Bog‘dod – Rishton – Oltiariq - Marg‘ilon – Farg‘ona – Quva – Marhamat – Andijon – Poytug‘ – Xaqulobod – Uchqurg‘on – Chortoq – Namangan – To‘raqurg‘on – Chust – Pop – Chodak.
2. Andijon – Xonobod
3. Namangan – Nanay
4. Farg‘ona – Shohimardon.



Mintaqadagi turistik koridorni rivojlantirish orqali bir nechta shaharlarni va shaharchalarni rivojlantirish mumkin va yangi shaharchalar tashkil etish imkoniyatlari mavjud. Buning uchun turistik koridordagi shahar va shaharchalar ichidan o‘shish qutbiga ega bo‘lganlarini aniqlash talab etiladi.

Taklif qilinayotgan koridorda joylashgan shahar va shaharchalarni tahlillari quyidagi o‘shish qutblarini va ularning imkoniyatlarini aniqlash uchun asos bo‘ladi. Qo‘qon, Farg‘ona, Andijon va Namangan asosiy turistik markaz bo‘lib, turistik infratuzilmalarni shakllanganligi va yanada rivojlantirish istiqbollari mavjudligi bu shaharlarni rivojlanishini ta‘minlaydi.

Rishton shahri taklif qilinayotgan turistik marshrutning Qo‘qon – Farg‘ona shaharlari orasida bog‘lovchi nuqta hisoblanadi. Shaharda hunarmandchilik yuksak rivojlanganligi va qo‘shni Qirg‘iziston bilan o‘tkazish punkti hamda So‘x anklavi uchun asosiy o‘tish yo‘lida ekanligi shaharni tez rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Marg‘ilon shahri ham asosiy turistik markaz sifatida turistik koridorda joylashganligi va hunarmandchilik va savdo sotiq, diniy turizm salohiyatini yuqoriligi shahar rivojida turizmni roli yuqori bo‘lishini ta‘minlaydi.

Koridorda joylashgan Oltiariq, Tinchlik, Toshloq va boshqa shaharchalar Farg‘ona – Marg‘ilon aglomeratsiyasi ta‘sir doirasida rivojlanib bormoqda. [3]

Shohimardon anklavidagi rekreatsion turizm bevosita Farg‘ona shahri va Farg‘ona – Shohimardon yo‘lidagi bir nechta shaharchalarni rivojiga katta hissa qo‘shadi. Quva shahri turistik koridorning Farg‘ona – Andijon yo‘nalishining oralig‘ida joylashganligi va shaharda muhim turistik maskanlar qadimgi Davon davlati poytaxtining arxeologik yodgorliklari, Karkidon suv omborida yaqin joylashganligi shahar rivojiga turizm omilini yuqoriligini belgilaydi. Karkidon suv ombori havzasida turizm rivojlanib borishi natijasida Quva shahri yaqinida joylashgan bir nechta qishloq hududlarini Quva shahri tarkibida qo‘shib hududda turistik infratuzilmalarni shakllantirish mumkin.

Farg‘ona halqa avtomobil yo‘lidan 18 km sharqda taklif etilayotgan turistik koridorda Marhamat shahri joylashgan bo‘lib, shahar qadim Ershi shahri va Mingtepa shahar yodgorliklari yonida joylashganligi va shahar janubida Oloy tog‘ tizmalari xam shahar yaqinidagi Qovunchi qishlog‘ida O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning uy muzeyi joylashganligi shaharni turizm orqali rivojlantirish imkoniyatini oshiradi.

Turistik koridorning Andijon – Namangan yo‘nalishida Haqqulobod shahri muhim o‘shish nuqtasi hisoblanadi. Shahar transport chorrahasida va qadimiy Elotan shahar yodgorliklari yaqinida joylashgan. Hududda, shuningdek, gastroturizm, agroturizm va hududdagi gidroinshootlar hisobiga rekreatsion turizmni rivojlantirish imkoniyatlari katta.

Chortoq shahrida ham rekreatsion turizm rivojlangan bo‘lib, shahar rivojida turizmning bu omilini, agroturizm va boshqa turizm turlari orqali shaharni rivojlantirish imkoniyati mavjud.

Viloyatning shimolidagi Kosonsoy shahri va Yangiqo‘rg‘on, Nanay, Zarkent shaharchalarini rekreatsion turizm bilan, shuningdek, qo‘shni Qirg‘iziston respublikasidagi rekreatsion obyektlar Sarichelak, Pochchaotasoy, Qanishqiya va boshqalar ham samarali foydalanish hisobidan shaharni rivojlantirish istiqbollari yuqori.

Hozirgi kunda Namangan va To‘raqo‘rg‘on shaharlari orasida 500 ga ortiq maydonda 150 mingdan oshiq aholiga mo‘ljallangan Namangan Business City qurilishi boshlangan bo‘lib, ushbu hududda turizmni zamonaviy turlarini va turizm infratuzilmasini rivojlantirish orqali shahar rivojida turizm omilini yuqoriligi belgilab beradi.

To'ra qo'rg'on shahrida ham turizm rivoji uchun keyingi yillarda bir qancha islohatlar amalga oshirildi. Is'hoqxon To'ra Ibrat ziyoratgohi va boshqa qadimiy qadamjoylar obodonlashtirildi. Shahar yaqinida joylashgan qadimiy Axsikent yodgorligi turizm rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi.[2]

Chust shahri viloyatning ikkinchi katta shahri bo'lib aholi soni 100 mingga yaqinlashmoqda. Shahar hunarmandchilik va savdo markazi sifatida ham rivojlangan. Shaharda yondosh G'ovasoy, Varzik va boshqa hududlarda rekreatsion turizm shakllanishi shahar rivojida turizmning ahamiyatini oshiradi.

Pop shahri sanoat va transport markazi sifati shakllanganligi bilan tavsiflansada shaharni turizm omili bilan rivojlantirish imkoniyatlari yuqori. Turistlarni yo'naltirish uchun shaharda 2 ta temir yo'l vokzali mavjudligi va shahardan har kuni respublikamizning deyarli barcha shaharlariga kuniga 2 tadan 4 tagacha yo'lovchi poyezdlarini harakatlanishi shaharni turizm markazi sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Chotqol tog' tizmasining janubiy yon bag'irlarida joylashgan Chodak qishlog'ida hozirgi kunda 20 mingda ziyod aholi istiqomat qiladi. [3] Hudud to'liq tabiiy rekreatsion hudud hisoblanadi. Turizm bu yerda mavsumiylik kasb etadi (asosan yoz oylaradi). Turizmni barqoror rivojlantirish uchun hududda qish fasliga mos bo'lgan tog'-chang'i obyektlari tashkil qilish imkoniyatlari bor. [4] Yuqoridagilardan kelib chiqib, Chodakka shahar maqomini berish to'g'ri bo'lardi.

Tahlillardan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, mintaqa shaharlarining rivojlanishida turistik koridorlarning ahamiyati yuqoriligini ko'rishimiz mumkin. Turistik koridorlarga shahar hosil qiluvchi va rivojlantiruvchi omil sifatida baholash to'g'ri bo'lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 13.08.2019 yildagi PF-5781-son Farmoni
2. Mahmudov.L.M.Axsikent yodgorligini o'rganish va uni turizm manzilgohiga aylantirish istiqbollari. -Namangan: Namangan, 2016. -24 b.
3. Soliyev. A.S..Tashtayeva.S.K. Egamberdiyeva M.M. "Shaharlar geografisi". O'quv qo'llanma.-Toshkent «Barkamol fayz media», 2018 y
4. Tuxliyev.I.S, .Qudratov.G'.X, Pardayev. M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik. «Iqtisodiyot moliya» nashriyoti. Toshkent 2010. 254 bet.
5. Tashtayeva S.K. Qosimov X.S. "Farg'ona mintaqasi turistik koridori shaharlarining rivojlanish imkoniyatlari". **"Zamonaviy geografik tadqiqotlarda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy va innovasion rivojlanishi, tabiatdan oqilona foydalanish va turizm masalalari"** Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (Nukus sh., 2021 yil 26-27 oktyabr) 113-116 betlar